

**2013–2017-YILLAR DAVRIDA SUG`ORILADIGAN
YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YANADA
YAXSHILASH VA SUV RESURSLARIDAN OQILONA
FOYDALANISH CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING
QARORI
19.04.2013 y.
N PQ-1958**

Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob`yektlari tarmog`ini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, buning asosida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta`minlash, yerlarning unumdorligini oshirish hamda qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini ko`paytirish maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, "Yergeodezkadastr" davlat qo`mitasi tomonidan Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan quyidagilarni o`z ichiga olgan 2013–2017-yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi ma`qullansin:

2013–2017-yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta`minlash bo`yicha chora-tadbirlar kompleksi 1-ilovaga* muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi mablag`lari hisobidan moliyalashtiriladigan 2013–2017-yillar davrida sug`oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash bo`yicha ishlarning prognoz parametrlari 2-ilovaga* muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga moliyalashtiriladigan 2013–2017-yillar davrida irrigatsiya ob`yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish prognoz parametrlari 3-ilovaga* muvofiq;

suv iste`molchilarini va fermer xo`jaliklari uyushmalarining mablag`lari hisobidan amalga oshiriladigan 2013–2017-yillar davrida sug`orish tarmoqlarini ta`mirlash va tiklash prognoz parametrlari 4-ilovaga* muvofiq;

qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining kredit mablag`lari va o`z mablag`lari hisobidan 2013–2017-yillar davrida tomchilatib sug`orish tizimini joriy etishning prognoz parametrlari 5-ilovaga* muvofiq.

2. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bir oy muddatda 2013–2017-yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona

foydanishning hududiy dasturlarini ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, boshqa ijrochi vazirliklar hamda idoralar rahbarlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari zimmasiga mazkur qaror bilan tasdiqlangan sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydanishning Davlat dasturi hamda hududiy dasturlarini sifatli va o`z vaqtida amalga oshirish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va Investitsiya dasturining har yillik loyihalarini shakllantirishda 2013–2017-yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydanishning Davlat dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda mablag`lar ajratishni nazarda tutsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyaning vakolatlari va vazifalarini kengaytirish zarur deb hisoblansin va ularning zimmasiga davlat kapital qo`yimalari hisobidan amalga oshiriladigan irrigatsiya ob`yeqtlarini qurish va rekonstruksiya qilish, tumanlararo va xo`jaliklararo kollektorlar hamda boshqa melioratsiya ob`yeqtlarini ta'mirlash va tiklash bo'yicha buyurtmachi vazifalari yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda ushbu o`zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlasin, vakolatlar va vazifalarni aniq belgilagan holda Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyasi to`g`risidagi namunaviy nizomni o`rnatilgan tartibda tasdiqlasin, ularga yuklatilgan vazifalar va mintaqalarning meliorativ holatini hisobga olgan holda uning tuzilmasi va xodimlar sonini tartibga solsin.

5. Shunday tartib o`rnatilsinki, unga muvofiq 2013-yilning 1-mayidan boshlab meva-sabzavotchilik, uzumchilik va poliz mahsulotlarini yetishtirish uchun yer uchastkalarini berish bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan qishloq xo`jalik tovar ishlab chiqaruvchilari o`rtasida tuziladigan ijara shartnomalarida, qoida tariqasida, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan tomchilatib sug`orish tizimini va suv tejaydigan boshqa sug`orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha investitsiya majburiyatlarini olish nazarda tutiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bir oy muddatda 2013–2014-yillarda, tajriba tariqasida, qishloq

xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan tomchilatib sug`orish tizimi joriy etilishini rag`batlantirish mexanizmi bo`yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

7. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti boshqaruvi xodimlarining umumiyligini cheklangan soni 38 nafardan iborat bo`lgan yangilangan tuzilmasi 6-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin, uning tarkibida melioratsiya ishlarning sifati ustidan joylarda texnik nazorat o`rnatish, ularning belgilangan normativlar va loyiha parametrlariga muvofiqligi, shuningdek bajarilgan ishlarning hajmlarini nazorat tartibida o`lchashni ta'minlaydigan melioratsiya ishlarini texnik kuzatib borish mintaqaviy guruhlarini tashkil etish nazarda tutilsin.

8. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Kengashi (Sh.M. Mirziyoyev):

sug`oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo`yicha loyihalarning har yilgi ro`yxati shakllantirilishi va tasdiqlanishini, zarur hollarda, mazkur qaror bilan tasdiqlangan Davlat dasturida nazarda tutilgan umumiyligini doirasida ularga yil davomida o`zgartish va qo`shimchalar kiritilishini;

Davlat dasturining tasdiqlangan parametrlari amalga oshirilishi to`g`risida davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda boshqa tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini har chorakda tinglagan holda, Davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalda ro`yobga chiqarish bo`yicha faoliyati samarali monitoring qilinishi va muvofiqlashtirilishini ta'minlasin.

9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida" 2007-yil 31-oktabrdagi PQ-718-sonli qaroriga o`zgartish va qo`shimchalar 7-ilovaga muvofiq kiritilsin.

10. O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o`zgartish va qo`shimchalar to`g`risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. Karimov

****) 1-6-ilovalar rus tilidagi matnda berilgan.***

**O`zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2013-yil 19-apreldagi
PQ-1958-sonli qaroriga
7-ILOVA**

**O`zbekiston Respublikasi Prezidentining
"O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi
Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash
jamg`armasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida" 2007-yil
31-oktabrdagi PQ-718-sonli qaroriga kiritiladigan
o`zgartish va qo`shimchalar**

1. 1-bandining uchinchi xatboshi va qarorning 1-ilovasi chiqarib tashlansin.

3. 2-ilovasida:

a) ikkinchi xatboshidagi "Bosh vazirining o`rribbosari" so`zlari "Bosh vazirining birinchi o`rribbosari" so`zlari bilan almashtirilsin;

b) o`n to`qqizinchi xatboshidagi "SANIIRI IICHB bosh direktori" so`zlari "Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti direktori" so`zlari bilan almashtirilsin.

4. 3-ilovada:

a) 5-bandi:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida magistral (viloyatlararo), tumanlararo, xo`jaliklararo ochiq kollektorlar va ulardagi inshootlarni, yopiq gorizontal drenaj shoxobchalarini, vertikal drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stansiyalari hamda kuzatish tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tozalash ishlarini o`tkazishga";

uchinchi xatboshidagi "davlat dasturiga" so`zlari "davlat dasturlariga" so`zlari bilan almashtirilsin.

b) 6-bandidagi "H. Sulaymonova ko`chasi" so`zlari "Istiqlol ko`chasi" so`zlari bilan almashtirilsin.

v) 8-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"8. Jamg`arma o`z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

konsolidatsiya qilingan Davlat byudjeti loyihasiga kiritish uchun daromadlar va xarajatlarning har yilgi balanslari loyihalarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

Jamg`arma bo`yicha kelgusi yilning har bir choraklariga taqsimlangan xarajatlarining tasdiqlangan parametrini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligiga, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va viloyat hokimliklariga yetkazadi;

Jamg`arma daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi;

meliorativ ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalgan holda amalga oshirish yuzasidan texnik topshiriqlarni beradi va tasdiqlaydi;

meliorativ ob'yektlarni loyihalash, qurilish, rekonstruksiya qilish, shuningdek magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo`yicha loyihalash va tender hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazishni tashkil etadi;

meliorativ ob'yektlarni qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo`yicha aniq manzilli ro`yxatlarni tuzadi va belgilangan tartibda tegishli idoralarga tasdiqlash uchun kiritadi;

meliorativ ob'yektlarni rekonstruksiya qilish va qurish bo`yicha loyiha-qidiruv ishlari, shuningdek tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarning aniq manzilli ro`yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari (keyingi o'rnlarda - QKBD) taqdimnomasi bo`yicha meliorativ ob'yektlarda ta'mirlash-tiklash ishlarning xarajatlar smetasi va manzili dasturlarini kelishib oladi;

QKBD taqdimnomasi bo`yicha avariya-tiklash ishlari uchun, shuningdek meliorativ ob'yektlarni ko`zda tutilmagan holda ta'mirlash va tiklash ishlari uchun zaxira xarajatlari smetalarini tasdiqlaydi;

meliorativ ob'yektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, magistral (viloyatlararo) kollektorlarni ta'mirlash-tiklash bo`yicha buyurtmachi vazifasini bajaradi;

QKBD buyurtmachi bo`lgan meliorativ ob'yektlarning ta'mirlash-tiklash ishlarni moliyalashtiradi, shuningdek qaytarib berish sharti bilan melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni sotib oladi;

tumanlararo va xo`jaliklararo meliorativ ob'yektlarda ta'mirlash-tiklash, loyiha-qidiruv ishlarni o'tkazish bo`yicha QKBD buyurtmachi vazifasini bajarishi ustidan nazorat olib boradi;

meliorativ ob'yektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, shuningdek magistral kollektorlarda ta'mirlash-tiklash ishlarni amalga oshirish bo`yicha tender (tanlov) savdolarini belgilangan tartibda o'tkazadi, tanlov savdolari g`oliblari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi;

tumanlararo va xo`jaliklararo meliorativ ob`yektlarda ta'mirlash-tiklash ishlari bo`yicha QKBD tomonidan tashkil etiladigan tender (tanlov) savdolarida belgilangan tartibda qatnashadi;

meliorativ ob`yektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, ta'mirlash va tiklash, melioratsiya texnikasini sotib olish ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

magistral (viloyatlararo) meliorativ ob`yektlarni rekonstruksiya qilish, qurish va ta'mirlash-tiklash ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek ularning belgilangan tartibda qabul qilib olishlarini ta'minlaydi;

tumanlararo va xo`jaliklararo meliorativ ob`yektlarni ta'mirlash va tiklash, shuningdek ularni qabul qilib olish ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshirishda qatnashadi;

Jamg`arma mablag`larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

Jamg`arma mablag`laridan maqsadli va samarali foydalanilishi masalalari bo`yicha nazorat o`lchovlarini, shuningdek korxonalar va tashkilotlar faoliyatini hujjatlar asosida tekshirib, taftishlarni muntazam ravishda o`tkazib turadi;

Jamg`arma mablag`laridan foydalanish bo`yicha tekshirishlarda aniqlangan qonun buzilishlari va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli sanksiyalarni o`rnatilgan tartibda belgilash bo`yicha takliflar kiritadi;

Jamg`arma daromadlari va xarajatlari bo`yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va tegishli organlarga tasdiqlash uchun kiritadi;

aniq manzilli ro`yxatlarga kiritilgan meliorativ ob`yektlarda bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda moliyalashtiradi";

g) 9-band quyidagi mazmunda yettinchi band bilan to`ldirilsin:

"O`zmeliomashlizing" Davlat lizing kompaniyasidan - melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni xarid qilishga ajratilgan mablag`lardan maqsadli foydalanish bo`yicha ma`lumotlarni";

yettinchi-sakkizinchisi xatboshilar tegishli ravishda sakkizinch-to`qqizinchisi xatboshilar deb hisoblansin;

d) 12-bandda:

beshinchi xatboshidagi "melioratsiya ekspeditsiyalari" so`zlari "Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari", boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar" so`zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmunda oltinchi xatboshi bilan to`ldirilsin;

"investitsiya dasturiga kiritilgan ob`yektlarning ustuvorligi va loyiha-smeta hujjatlarining tayyorligidan kelib chiqqan holda, tasdiqlangan limitlar doirasida, irrigatsiya-melioratsiya ob`yektlarining ro`yxati va proqnoz parametrlariga o`zgartishlar kiritadi";

oltinchi-yettinchi xatboshilar yettinchi-sakkizinchisi xatboshilar deb hisoblansin;

e) 13-bandning ikkinchi xatboshidagi "Jamg`arma mablag`lari" so`zlari "O`zmeliomashlizing" DLK tomonidan berilgan qarz mablag`lari bo`yicha marja tarzida olinadigan "Jamg`arma daromadlari" so`zlari bilan almashtirilsin.

"O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami",
2013 yil 29 aprel` , 17-son, 223-modda